PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA TOPISHMOQ JANRINING O‘RNI

Yoqubova Diloromxon Toxirjon qizi
Qo‘qon universiteti 3-bosqich talabasi
Email: dilimdilim329@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20283197

Annotatsiya. Ushbu maqola topishmoqlarning yuzaga kelish tarixi, asosiy xususiyatlari, qanday vosita sifatida qo‘llanilishi, uning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni, muhim jihatlari. Topishmoqlarni zamonaviy yondashuv asosida bolalarga yetkazish, ularni shakllantirilgan metodlar yordamida qiziqtirish. Bolalarga chet tillarini o‘rgatishda topishmoq kerakligi, bolalarni nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: topishmoqlar, xususiyatlari, maktabgacha ta’lim, rivojlantirish, xissasi, bola, oson.

Kirish

Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e’tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan.Topishmoq-xalq og‘zaki ijodining qadimiy va qiziqarli janrlaridan biri. U insonlarning fikrlash qobiliyatini oshirish, topqirlik va zukkolikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar asrlar davomida xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va tajribasidan yuzaga kelgan. Topishmoqlarning asosiy xususiyatlaridan biri – yashirin ma’noga ega bo‘lishidir. Unda biror predmet yoki sodir bo‘layotgan hodisa to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmaydi, balki turli belgilar, o‘xshatishlar va ramzlar orqali tasvirlanadi. Tinglovchi shu tasvirlarga qarab, tasvirlab javob topishi kerak bo‘ladi. Shu sababli topishmoq insonni mushohada yuritishga va aqlni charxlashga xissasi juda katta. Uning asosiy asosiy qismi b‘lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan obyekt narsaning otini aytib berishdan iboratdir. Savol-jumboq qismi esa, tabiat, hodisalar, obyektni taqqoslash, o‘xshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. **[S.Bazarov. 31-bet]2023** Topishmoqlarda badiiy tasvir vositalari keng qo‘llaniladi. Ularda o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a kabi san’at vositalari uchraydi. Bu topishmoqning ta’sirchanligini oshirib uni yanada qiziqarli bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan: O‘zi ignaday, boshida sallasi bor; (gugurt)
Lenta kabi cho‘zilib,
Yurtni yurtga ulaydi.
Do‘stni do‘stga uchratib,
Qalbga sevinch qalaydi. (yo‘l) **[M. Jumaboyev14-bet]**

Binobarin, xalq topishmoqlardagi adabiy topishmoqlardan ham yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda, didaktik va axloqiy maqsadlarda keng va samarali foydalanilmoqda. Topishmoq endilikda tom ma’noda, bolalar ma’naviy mulkiga aylandi va ularni hozirjavoblikka, topqirlikka, narsa va hodisalar mohiyatini teran anglashga, sezgirlik va sinchkovlik bilan kuzatishga o‘rgatish uchun xizmat qilmoqda. **[O.Safarov, Rahmatulla Barakayev, Bashorat Jamilova:66-bet]**

Yangi topishmoqlar. Bular bevosita an’navay topishmoqlar ta’sirida yaratilgan bo‘lib, ularga xos an’anaviy shakl, badiiy usullar va jumboqlanish uslubini, asosan, saqlab qolgan. Ularda hamisha zamonaviy mavzuga murojaat yetakchilik qiladi. Bu esa topishmoq janri qismatida davomiylikni ta’minlagan omil hisoblanadi. Predmetli topishmoqlarda yashiringan aniq narsaning individual xususiyatlari lo‘nda, siqiq, sodda va tushunarli tarzda badiiy so‘z vositasida chizib beriladi. Ularda borliqdagi narsalarning o‘zaro o‘xshashligi va yaqinligi to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Shu ma’lumotlar yordamida inson tevarak-atrofidagi narsa-hodisalarning serqirraligini his qiladi. **[M. Tursunova, X.B. Tojiyeva 61-bet]**

Metodologiya

Kuzatish metod. Bolalarni nutqini shakllantirish jarayoniga foydasi bo‘layaptimi, yoki bo‘lmayaptimi, bolalar qanday topishmoqlarga qiziqishini kuzatib aniqlab olish.

So‘rovnoma metodi. Zamonaviy yondashuvlar (multimediya, smart doskalar animatsion videolardan foydalanish) bolalarga samara beradimi, yo‘qmi kichik so‘rovnoma o‘tkazish.

O‘yin metodi. Bu metod hamma bolalar uchun qiziqarlidir. “Topishmoqlar turniri, “Javobni och” kabi interaktiv o‘yinlarni qo‘llash.

Tadqiqotning dolzarbligi. Hozirgi zamon axborot texnologiyalar asridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar smartfon va gadjetlarga qaram bo‘lib bormoqda. Bu esa, ko‘plab (aqli, nutqiy, asabiylik) kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Ularni qaram bo‘lishini oldini olish uchun bolalar bilan ko‘proq shug‘ullanish, ularga turli qiziqarli o‘yinlar o‘tkazdirish kerak. Jumladan so‘z o‘yinlari bo‘lmish topishmoqlar, tez aytishlardan qo‘llash bolalarni fikr doirasini kengaytirishda, aql-idroklarini rivojlantirishda kuzatuvchanlik hislarini, nafosat tuyg‘ularini o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi. **[H.Ch.Nusratova:37-b]**

Asosiy natijalar. Topishmoqlarga bolalarning bo‘lgan qiziqishi aniqlab olindi. Ular topishmoqlarga juda- juda qiziqishi kuchli ekan. Ayniqsa, javobini tezda topib qo‘yishdi. Bolalar predmetli, tabiat hodisalari, mantiqiy tuzilishdagi, hayvonlar, o‘simliklar olami, mevalar kabi topishmoqlarga ko‘proq qiziqishdi. Yuqoridagi o‘yin metodi bolalarni dunyoqarashini, so‘z boyligini, xotirasini kengaytirishga tabiatga bo‘lgan munosabatni oshirishga, nutqini rivojlanishiga, ko‘z bilan ko‘rib turilmagan narsani tasavvur qilish orqali kreativlikni oshirishga, kognitiv (bilish) qobiliyatlarni shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihati – topishmoqlarning qisqa, lo‘nda bo‘lishidir. Ular odatda ixcham shaklda tuziladi va oson yodda saqlanadi. Ular nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular bolalarni zehnini charxlaydi, tez fikrlashga o‘rgatadi.

Imkoniyatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o‘rgatishda ham topishmoqlar eng kerakli manba hisoblanadi. Chunki ular orqali ingiliz, rus tillarini tezda o‘rganib olishga qulaylik beradi. Axborot texnologiyalarga kiruvchi: sun’iy intellektdan foydalanib qiziqarli, rang-barang tarzida vidyo yasab topishmoqni o‘rgatish. Yangi interaktiv metodlar ishlab chiqish topishmoqlarni o‘rgatishga. Oilada alohida kitobxonlikka muhit tashkil qilish. Chunki kitobxonlik, oiladan boshlab o‘rgatilsa. Ta’lim jarayonlarida o‘rgatishda qiyinchiliklar yuz bermaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining bebaho namunasi hisoblanadi. Ular bolalar va kattalarni tafakkurini rivojlantiradi, estetik didini shakllantiradi va milliy madaniyatimizni boyitadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aslida topishmoqlar har gal bir predmetli shaklda jumboqlanib yuzaga kelgan bo‘lsada, og‘zaki ijro jarayonida vaqt o‘tishi bilan yangi-yangi jumboqlanishlar evaziga murakkablasha borib, ko‘p predmetlilik xususiyatini kasb etishgan.

Topishmoqlarda badiiylik aks etadi. Unda qofiya, ritm, jonlantirish, metafora kabi badiiy vositalar ishlatiladi. Shu sababli topishmoqlarni o‘rganish va avlodlarga yetkazish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Bazarov T- (2023) “O‘quv qo‘llanma”.
2. M. Jumaboyev T- (2004) “Bolalar adabiyoti”.
3. O.Safarov, R. Barakayev, B. Jamilova “Bolalar adabiyoti”.Darslik.T-(2018).
4. M. Tursunova, X.B. Tojiyeva S-(2020) “O‘quv-uslubiy majmua”.
5. H.Ch.Nusratova.T-(2022) “Bolalar adabiyoti” O‘quv qo‘llanma.